

XII. DEMOGRAFIK HOLAT VA O'RTACHA ISH HAQI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-dekabr holatiga viloyat doimiy aholisining soni **4 061,5** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 85,2 ming kishiga yoki 2,1 %ga ko'paydi. Shundan, 2 309,4 ming kishi - shahar joylarida (jami aholi sonining 56,9 %) va 1 752,1 ming kishi - qishloq joylarida (43,1 %) istiqomat qiladi.

Viloyat hududi va aholi zichligi (2024- yil 1- yanvar holatiga)

	<i>tashkil topgan sana</i>	<i>hududi, ming kv. km</i>	<i>doimiy aholi soni, ming kishi</i>	<i>1 kv. km ga aholi zichligi, kishi</i>
Viloyat bo'yicha	15.01.1938	6,759	4 061,5	600,8
<i>shaharlar:</i>				
Farg'ona	1877- yil	0,1	321,8	3 218,0
Qo'qon	X asr	0,04	309,1	7 727,5
Quvasoy	14.06.1954- yil	0,26	101,2	389,2
Marg'ilon	X asr	0,05	250,9	5 018,0
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	29.09.1926 yil	0,63	228,4	362,5
Qo'shtepa	16.04.1952 yil	0,37	209,1	565,1
Bag'dod	31.12.1964 yil	0,33	233,0	706,1
Buvayda	26.12.1973 yil	0,28	247,2	882,9
Beshariq	29.09.1926 yil	0,77	242,9	315,5
Quva	10.02.1939 yil	0,44	275,8	626,8
Uchko'prik	29.09.1926 yil	0,28	241,7	863,2
Rishton	09.01.1967 yil	0,31	216,9	699,7
So'x	27.02.1990 yil	0,22	83,9	381,4
Toshloq	12.04.1973 yil	0,24	219,1	912,9
O'zbekiston	17.04.1963 yil	0,69	235,0	340,6
Farg'ona	22.02.1964 yil	0,6	221,5	369,2
Dang'ara	07.12.1970 yil	0,43	177,1	411,9
Furqat	09.04.1992 yil	0,31	127,1	410,0
Yozyovon	27.12.1980 yil	0,41	119,8	292,2

Farg'ona viloyatining ma'muriy-hududiy tashkil topishi 1938-yilning 15- yanvaridan boshlanadi. Hududi 6,8 ming kvadrat kilomertni tashkil etadi yoki mamlakatimiz hududining 1,5 foiziga teng. Viloyatimiz shimoldan Namangan viloyati, sharqdan Andijon viloyati, janub tomondan Qirg'iziston Respublikasining O'sh hamda Batken viloyatlari va g'arbdan Tojikiston Respublikasining Xo'jand viloyati bilan chegaradosh. Viloyatning So'x tumani hamda Farg'ona tumanining Shohimardon va Yordon, Rishton tumanining Cho'ng'ara qishloqlari viloyat, Respublika hududidan tashqarida, Qirg'iziston Respublikasi hududida joylashgan.

Viloyat ma'muriy hududiy bo'linishiga ko'ra 4 ta viloyat miqyosidagi shahar, 15 ta tuman, 5 ta tumanlar tasarrufidagi shaharlar, 194 ta shahar tipidagi posyolkalar, 998 ta aholi yashash punktlari hamda 1 062 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridan tashkil topib, ularda **4061,5** ming nafar aholi istiqomat qiladi. Viloyatning ma'muriy markazi Farg'ona shahri.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog' tizmalari Farg'ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to'sib turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo'tadil. Yozi issiq, iyulning o'rtacha harorati 27,5°S, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o'rtacha harorati -3°S. Vegetatsiya davri 217 kun, yillik o'rtacha yog'in miqdori 200-250 mm.ni tashkil etadi.


Farg'ona viloyati hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot
(2024- yilning 1- yanvar holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %da		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Farg'ona viloyati	4 061,5	2 309,4	1 752,1	102,1	56,9	43,1
<i>shaharlar:</i>						
Farg'ona	321,8	321,8	0,0	102,3	100,0	0,0
Qo'qon	309,1	309,1	0,0	101,8	100,0	0,0
Quvasoy	101,2	56,9	44,3	102,4	56,2	43,8
Marg'ilon	250,9	250,9	0,0	101,7	100,0	0,0
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	228,4	171,5	56,9	102,1	75,1	24,9
Qo'shtepa	209,1	80,1	129,0	102,7	38,3	61,7
Bag'dod	233,0	119,1	113,9	102,2	51,1	48,9
Buvayda	247,2	113,0	134,2	102,4	45,7	54,3
Beshariq	242,9	85,1	157,8	101,9	35,0	65,0
Quva	275,8	127,5	148,3	101,9	46,2	53,8
Uchko'prik	241,7	46,1	195,6	102,4	19,0	80,9
Rishton	216,9	138,3	78,6	102,2	63,8	36,2
So'x	83,9	52,9	31,0	102,2	63,1	36,9
Toshloq	219,1	51,8	167,3	102,2	23,6	76,4
O'zbekiston	235,0	107,6	127,4	101,9	45,8	54,2
Farg'ona	221,5	136,9	84,6	102,0	61,8	38,2
Dang'ara	177,1	39,1	138,0	102,5	22,1	77,9
Furqat	127,1	30,3	96,8	102,2	23,8	76,2
Yozyovon	119,8	71,4	48,4	102,2	59,6	40,4

Shaharlar ichida eng ko‘p aholi Farg‘ona shahrida 321,8 ming kishi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 %ga o‘sgan) va tumanlarda eng ko‘p aholi Quva tumanida bo‘lib 275,8 ming kishini tashkil qiladi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 %ga o‘sgan).

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

(2024- yil 1-yanvar holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, % da)




**Yanvar-dekabr oylarida viloyat bo‘yicha aholining tabiiy harakati
koeffitsiyentlari**

Ko‘rsatkichlar	ming kishi		1000 aholiga nisbatan	
	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil
Tug‘ilganlar	101,3	106,5	25,7	26,5
O‘lganlar	18,5	18,7	4,7	4,6
Nikohlar, mingta	32,0	31,1	8,1	7,7
Ajralishlar, mingta	5,4	5,8	1,4	1,4

Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti

(2023- yilning yanvar-dekabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille))



Tug'ilish darajasi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylari tug'ilganlar soni 106,5 ming kishini tashkil etdi va 2022-yilning shu davriga (101,3 ming kishi) nisbatan 5,2 ming kishiga ko'paydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 25,7 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning Qo'shtepa tumanida 28,6 dan 30,2 promille, Rishton tumanida 24,1 dan 27,0 promillega, Bag'dod tumanida 26,7 dan 28,3 promillega kuzatildi.


O‘lim darajasi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida o‘lganlar soni **18658** kishini tashkil qildi va 2022- yilning shu davriga (**18460** kishi) nisbatan 198 kishiga ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti **4,6** promilleni tashkil qildi (2022- yil yanvar-dekabr oylarida **4,7** promille).

O‘lganlar sonining kamayishi viloyatimizning ba’zi shahar va tumanida yuz bergan bo‘lib, eng ko‘p o‘lim Farg‘ona shahrida **1740** kishidan 5,5 promille, Qo‘qon shahrida **1499** kishidan 4,9 promillega kuzatildi, Quva tumanida **1210** kishidan 4,4 promille, Marg‘ilon shahrida **1191** kishidan 4,8 promille, O‘zbekiston tumanida 1213 kishidan 5,2 promille.

O‘lganlar umumiy sonining **64,8** %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,2** %i o‘sma kasalliklaridan, **4,7** %i ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, **5,7** %i baxtsiz hodisadan, **4,2** %i nafas olish organlari kasalliklaridan vafot etgan.

O‘lganlar umumiy sonining tarkibiy tuzilishi

(2024- yilning 1-yanvar holatiga, %da)



Nikohlar va ajralishlar. 2023-yilning yanvar-dekabr oylari shahar, tuman hokimliklarining FHDYo bo‘limlarida **31121** ta nikohlar va **5773** ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 7,7 ta nikoh (2022- yilning tegishli davrida 8,1 ta) va 1,4 ta ajralishlar (2022- yilning tegishli davrida -1,4) to‘g‘ri keladi.

Yanvar-dekabr oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni
(birlikda)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>
Viloyat	31 992	31 121	5 445	5 773
<i>shaharlar:</i>				
Fargʻona	2 204	2 250	744	762
Qoʻqon	1 997	2 133	601	619
Quvasoy	711	708	164	169
Margʻilon	1 921	1 943	382	364
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	1 825	1 900	261	290
Qoʻshtepa	1 691	1 669	204	238
Bagʻdod	2 037	1 841	318	344
Buvayda	2 134	1 936	247	285
Beshariq	1 843	1 899	226	258
Quva	2 077	1 981	287	325
Uchkoʻprik	1 999	1 935	212	305
Rishton	1 966	1 890	346	328
Soʻx	734	752	76	104
Toshloq	1 654	1 579	200	215
Oʻzbekiston	1 955	1 739	313	286
Fargʻona	1 848	1 810	353	333
Dangʻara	1 585	1 416	247	231
Furqat	985	854	123	159
Yozyovon	826	886	141	158

Migratsiya. Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatga koʻchib kelganlar soni **8944** kishini, shu davr mobaynida koʻchib ketganlar soni esa **11555** kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldigʻi minus **2611** kishiga (2022-yilning shu davrida- minus **2804** kishi) teng boʻldi. Eng katta minus qoldiqlar Qoʻqon sh (minus **949**) va Margʻilon shahrida (minus **1152**) kuzatildi.

Yanvar-dekabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari


(kishi)

	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>


Viloyat	8 618	8 944	11 422	11 555	-2 804	-2 611
<i>shaharlar</i>						
Farg'ona	2 962	4 175	1 635	2 437	1 327	1 738
Qo'qon	371	249	1 344	1 198	-973	-949
Quvasoy	459	484	316	329	143	155
Marg'ilon	49	20	1 233	1 172	-1 184	-1 152
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	127	173	461	427	-334	-254
Qo'shtepa	667	568	346	323	321	245
Bag'dod	63	22	471	338	-408	-316
Buvayda	287	162	502	425	-215	-263
Beshariq	213	239	729	635	-516	-396
Quva	156	217	605	650	-449	-433
Uchko'prik	339	170	501	328	-162	-158
Rishton	207	196	441	415	-234	-219
So'x	80	118	39	71	41	47
Toshloq	333	363	394	425	-61	-62
O'zbekiston	416	289	699	550	-283	-261
Farg'ona	756	575	670	1 033	86	-458
Dang'ara	593	410	436	277	157	133
Furqat	406	373	392	313	14	60
Yozyovon	134	141	208	209	-74	-68

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 444,9 ming so'mni tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga nisbatan 19,1 %ga o'sdi. Eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Farg'ona shahrida 4 848,6 ming so'mni, Qo'qon shahrida 3 910,5 ming so'mga to'g'ri keldi.

Yanvar-dekabr oylari davomida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi (ming so'mda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2023- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz ming so'mda)



Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori miqdori moliya va sugʻurta faoliyatiga toʻgʻri kelib, 9 695,9 ming soʻmni tashkil etdi. Bu koʻrsatkich qurilishda 3 539,2 sanoatda 4 057,3 va taʼlim sohasida 2 798,7 ming soʻmdan iborat boʻldi.

Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(yanvar-dekabr oylari qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming.soʻmda)

	2022-yil	2023-yil	Oʻsish surʼati %
Viloyat	2 892,9	3 444,9	119,1
<i>shaharlar:</i>			
Fargʻona	4 011,2	4 848,6	120,9
Qoʻqon	3 308,2	3 910,5	118,2
Quvasoy	2 869,5	3 418,8	119,1
Margʻilon	2 454,8	2 846,3	115,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	2 011,7	2 375,8	118,1
Qoʻsh tepa	2 507,1	2 875,9	114,7
Bagʻdod	2 583,7	2 776,5	107,5
Buvayda	2 158,4	2 747,9	127,3
Beshariq	2 072,8	2 604,2	125,6
Quva	2 277,8	2 592,6	113,8
Uchkoʻprik	2 234,8	2 731,0	122,2
Rishton	2 229,4	2 640,4	118,4
Soʻx	2 446,3	2 826,1	115,5
Toshloq	3 135,8	3 652,2	116,5
Oʻzbekiston	2 365,1	2 751,7	116,3
Fargʻona	2 358,1	2 656,4	112,7
Dangʻara	2 261,0	2 748,9	121,6
Furqat	2 473,6	2 891,2	116,9
Yozyovon	2 490,2	2 826,5	113,5

**** (qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)**